



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR
QO'LLASH**Hamdamova Surayyo Zokir qizi***Shayxontohur tuman politexnikumi**matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari xususida so`z yuritiladi. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: в данной статье рассматриваются возможности и преимущества использования интерактивных методов на занятиях по математике. Также дана информация об использовании интерактивных методов при обучении математике в начальных классах.

Abstract: this article discusses the possibilities and advantages of using interactive methods in mathematics classes. Also, information is given about the use of interactive methods in teaching mathematics in elementary grades.

Kalit so'zlar: innovatsiya, interfaol, pedagogik mahorat, samaradorlik, didaktik vazifa, xotira, ta'lim sifati, bilim, axborot vositalari, kompyuter.

Ключевые слова: инновации, интерактивный, педагогические навыки, эффективность, дидактическое задание, объем памяти, качество образования, знание, средства массовой информации, компьютер.

Keys words: innovation, interactive, pedagogical skills, efficiency, didactic task, memory, quality of education, knowledge, media, computer.

Bugungi kunda mamlakatimizda bo`layotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta'lim-tarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar “Milliy dastur”imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun o`qituvchisini yanada ko`proq mehnat qilishga, izlanishga da`vat etmoqda. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo`lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o`rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko`lamini hosil qilish, ma`naviyaxloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta`limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog`liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug` ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog`liqdir.

Zamonaviy ta`limni tashkil etishga qo`yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko`nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lif jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lif-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish usullarini ko'rib chiqamiz.

“6x6x6” metodi. “6x6x6” metodi yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“Charxpakal” metodi. “Charxpakal” texnologiyasidan o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo'lim tugatilganidan keyin, o'tilgan mavzularni o'zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazishda foydalanish mumkin. Mashg'ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo'ladi. Qolaversa, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o'rganishda ham asqotadi.

“Klaster” metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishslash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar va o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. “Zakovatli zukko” metodi. Mavjud bilimlarni puxtao'zlashtirishda o'quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi o'quvchlarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shaklalantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z bilimlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Ochilov, N.Ochilova “Oliy maktab pedagogikasi” T.-2008
2. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” T.-2017
3. R.Mavlonova, N.Voxidova va N.Raxmonqulova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” T.-2010
4. “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (1999 yil 16 avgust) //Xalq ta’limi j. 1999. № 5
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
6. Tolipov O‘. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: “Fan”. 2005.
- 7.Nazim, B. (2024). THE USE OF FACT-CHECKING INSTRUMENTS IN ENHANCING MEDIA LITERACY. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(2), 440-444.
- 8.Nazim, B. (2024). ENHANCING INFORMATION SECURITY THROUGH IMPROVED MEDIA LITERACY MODULES. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 235-239.
- 9.Ziyodullayeva, K., & Bo‘ronov, N. (2024). FAKE NEWS AND THEIR ROLE IN PROPAGANDA MATERIALS. Развитие и инновации в науке, 3(8), 55-57.
- 10.Бўронов, Н. (2022). МЕДИАТАЪЛИМ ФЕЙК МАЪЛУМОТЛАРГА ҚАРШИ ҚАРШИ МЕДИСАВОДХОНЛИКНИ ОШИРУВЧИ ВОСИТА СИФАТИДА. RESEARCH AND EDUCATION, 1(6), 241-250.
- 11.Khumora, Z., & Nazim, B. R. THE ROLE OF THE INTERNET IN THE SPREAD OF FAKE INFORMATION.
- 12.Rajabova, S. A., & Normurodova, Q. T. (2024). OROL BO‘YI XUDUDLARINING SHO‘RLANGAN VA QURG‘OQCHIL TUPROQLARINI QAYTA TIKLASHDA BIOPREPARATLARDAN FOYDALANISH. TANQIDIY NAZAR, TAHЛИLIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR, 1(1), 114-116.
- 13.Назирова, З. Р. (2021). ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОПТИМИЗАЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ ВЕТЕРИНАРНОГО ВУЗА НА ОСНОВЕ ИКТ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 629-633.
- 14.Аблаева, Н. К., & Зулунова, К. К. (2024). ТЕМА "МАЛЕНЬКОГО ЧЕЛОВЕКА" В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПУШКИНА ("ПОВЕСТИ БЕЛКИНА"). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "МА‘MUN SCIENCE", 2(1).



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- 15.Аблаева, Н. К. (2023). МНОГООБРАЗИЕ ТЕМ В ПОЭЗИИ БАБУРА. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 566-569.
- 16.Аблаева, Н. К., & Атаназарова, Х. М. (2024). ПЕЙЗАЖНАЯ ЛИРИКА ФЕТА. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(4), 188-193.
- 17.Аблаева, Н. К., & Хасанова, Ш. К. (2024). АФОРИЗМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ГРИБОЕДОВА (" ГОРЕ ОТ УМА"). YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(4), 264-268.
- 18.Аблаева, Н. К. (2024). «НАРОДНАЯ ДРАМА» АН ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА» В КОНТЕКСТЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ И ОБРЯДОВЫХ ТРАДИЦИЙ. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 24-29.
- 19.Аблаева, Н. К., & Сапарбаева, С. Б. (2024). ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ"-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ РОМАН РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ. Miasto Przyszłości, 46, 693-697.
- 20.Аблаева, Н. К. (2023). «ТЕНЬ МОЯ НА СТЕНАХ ТВОИХ». (Восточные мотивы в творчестве Анны Ахматовой). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "MA'MUN SCIENCE", 1(1).

